

Terminallar turi va ulardan foydalanish yo'riqnomalari

Monetel EF T10, Monetel EF T20, Ingenico 5100, Sagem EF T Smart, Hypercom T7Ps va XiMAX.

Ular vazifalariga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:

- **To'liq funktsional stasionar – Monetel EFT 10, Ingenico 5100, Sagem EF T Smart**, tarkibida o'rnatilgan modem, mikroprotessor kartochkalari uchun 2 ta rideri va magnit tasmali karta uchun 1 ta rider, termobosma uskunasi, 220V chiqarilgan elektr manbasi va mijoz uchun chiqarilgan klaviatura bor, hamda magnit tasmali Visa xalqaro plastik kartochkalari bo'yicha naqd pulsiz "to'lov" va "naqd pul chiqarish" operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan Hypercom T7Ps tarkibida magnit tasmali karta uchun 1 ta rider, termobosma uskunasi va 220V chiqarilgan elektr manbasi bor;

- **To'liq funktsional ko'chiriladigan – Monetel EF T20**, tarkibida mikroprotessor kartochkalari uchun 2 ta rideri va magnit tasmali karta uchun 1 ta rideri, termobosma uskunasi xamda akkumulyatorlarni zaryadlash uchun qo'shimcha uskuna, o'rnatilgan modemi bor;

- **Miniterminallar – XiMAX**, tarkibida tarkibida mikroprotessor kartochkalari uchun 2 ta rideri bor. Bu terminal avtonom manbaga ega (1,5 V dan 2 ta batareya) va miniatyur hajmlari bilan ajralib turadi (karmon kalkulyatoridek), bu uni mijozlariga chek o'rniga to'lovni tasdiqlovchi kvitantsiya, bilet, jeton va boshqalar beradigan savdo nuqtalarida ishlatishga imkon beradi. Bu terminallar ular ishlatiladigan tashkilotlarda, masalan ishlab chiqarish elektrmanbasi (220 volt) yo'q tashkilotlarda, ishlatilishida qulayligi va kamharjligi bilan ajralib turadi.

Savdo terminali va uning chiqariladigan mijoz klaviaturasi (u to'liq funktsional terminallarda bor) ma'lumotlar kiritish paneliga ega, u quyidagilardan tashkil topgan:

– *funktsional tugmalar* (faqat terminallarda mavjud va odatda uning displei tagida joylashgan), ular yordamida savdo shahobchasi personalni egalik kartasi yoki tashkilot savdo kartasi bilan moliyaviy va xizmat operatsiyalarini sodir etish uchun menyu bandlarini tanlashlari mumkin;

– *sonli tugmalar* «0» dan «9» gacha (terminalda ham, chiqariladigan mijoz klaviaturasida ham mavjud) ular yordamida savdo shahobchasi personalni yoki karta egasi kerakli miqdorni va PINlarni kiritadi;

– *maxsus tugmalar*, (terminalda ham, chiqariladigan mijoz klaviaturasida ham mavjud va odatda sonli tugmalarning o'ng tarafida joylashgan) ular savdo shahobchasi personalni yoki karta egasi tomonidan kiritilgan miqdorni tasdiqlash, operatsiyaga ruxsat berish/bermaslik, kiritilgan miqdorni va PINni to'g'rilash uchun ishlatiladi. kiritilgan miqdorni yoki PINni tasdiqlash uchun tugma **yashil** rangli, kiritilgan miqdorni va PINni to'g'rilash uchun tugma **sariq** rangli, hali boshlanmagan operatsiyani ta'qiqlash yoki oldingi bosqich menyusiga o'tish uchun ishlatiladigan tugma **qizil** rangdadir.

- *Savdo terminali uning xavfsizligini, ishchanligini va ishlab chiqaruvchi hujjatlarida ko'rsatilgan ishlatish shart sharoitlarini ta'minlovchi joyda ishlatilishi lozim.*

- *Savdo terminalining barcha cheklari sotuvchi tomonidan saqlanishi va bankka hisobot uchun ko'rsatilishi lozim.*

3. SAVDO SHAHOBCHASIDA TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH

Mijoz savdo shahobchasida mahsulot yoki xizmat uchun to'lamoqchi bo'lsa, Siz mijoz taqdim qilayotgan plastik karta «UZKART» tizimiga kirish/kirmasligini tekshirishingiz lozim. Keyin terminal modeliga ko'ra mijozning plastik kartasini savdo terminaliga joylashtirishingiz yoki mijozga uning o'zi kartani chiqarilgan mijoz uchun klaviatura rideriga kiritishini so'rashingiz mumkin (Ingenico 5100 modeli uchun). Shundan so'ng, savdo shahobchasi ishchisi va mijoz quyidagilarni bajarishi zarur:

3.1. Savdo shahobchasi personalni kerakli funktsional tugmani bosish bilan "to'lov" menyu bandini tanlashi va sonli klaviatura orqali harid qiymatini kiritishi lozim. Kiritilgan qiymat chiqarilgan mijoz klaviaturasi displeida aks etadi.

3.2. Mijoz displeyda aks etgan qiymatni tekshirishi va uni yashil tugmani bosib tasdiqlashi kerak. Bunda:

- Agar terminal YoKH(yopiq karta hisobraqami) dan to'lovni amalga oshirishga sozlangan bo'lsa, uning egasi to'lov qiymatini tasdiqlaganidan so'ng, o'z kartasi PIN2 ni kiritishi (kartadan mablag'ni yechib olish uchun sonli parol) va chiqarilgan mijoz klaviaturasida yashil tugmani bosishi lozim. Shundan so'ng, terminal kiritilgan PIN2ning to'g'riligini tekshiradi va tekshiruv natijasiga ko'ra to'lovni amalga oshiradi yoki undan voz kechadi. Agar karta egasi noto'g'ri PIN2 kiritgan bo'lsa, u savdo shahobchasi personalini yana to'lovni bir bor qaytarishini so'raydi (faqat uchta urinish).

- Agar terminal OKH(ochiq karta hisob raqami) yoki YoKH bilan to'lovni amalga oshirishga sozlangan bo'lsa, to'lovni amalga oshirish uchun OKH da yetarli mablag' bor bo'lsa, o'zaro hisob kitob avtomatik ravishda, PIN2 siz, OKH bilan bajariladi. Agar OKHda mablag' yetarli bo'lmasa, to'lov yuqorida aytib o'tilganidek YoKH bilan to'lov uchun amalga oshiriladi.

3.3. Terminal savdo kartasi va mijoz kartasi o'zaro hisob kitobini tugatgandan so'ng, terminal maxsulot yoki hizmat to'lovi uchun ikkita bir hil chek bosib chiqaradi (XiMAX miniterminalidan tashqari), ulardan biri maxsulot va karta bilan savdo shahobchasi personali tomonidan karta egasiga berilishi lozim, ikkinchisi savdo shahobchasida qoladi. Agar to'lov yuqorida ko'rsatilgan miniterminalda amalga oshirilgan bo'lsa, miniterminal displeyida amalga oshirilgan to'lov qiymati va uning muvaffaqiyati– «OK» ko'rsatilgan bo'ladi.

3.4. Agar biron bir sababga ko'ra karta egasi savdo shahobchasiga plastik karta orqali harid qilgan mahsulotni qaytarib olib kelsa yoki hizmatdan bosh tortsa, «Qaytarish Cheki »ni tuzish kerak. Unda plastik karta orqali to'langan mahsulot nomi, to'lov qiymati, qaytarish sababi, mijoz kartasi va savdo shahobchasi ma'lumotlari ko'rsatilishi lozim. Qaytarish cheki 3 nusxada to'ldiriladi: bittadan karta egasiga, savdo shahobchasiga va to'lov amalga oshirilganda ishlatilgan savdo kartasi va terminali bo'lgan bank uchun. Qaytarish chekinging hamma nusxasi karta egasi va savdo shahobchasi personali tomonidan imzolanadi. Savdo shahobchasi tarafdin hamma nusxalar savdo shahobchasi tegishli bo'lgan savdo va hizmat tashkiloti rasmiy muhri va shtampi bilan tasdiqlanadi.

3.5. Qaytarish cheki to'lov amalga oshirilganda ishlatilgan savdo kartasi va terminali tegishli bankka kelib tushganda, bank karta egasi hisob raqamini to'lov qiymatiga kreditlaydi va savdo va hizmat tashkilotini shu miqdorga debitlaydi.

4. TERMINALDA XIZMAT OPERATSIYALARINING BAJARILISHI

Qo'shimcha savdo terminalida karta egasi iltimosiga binoan quyidagi hizmat operatsiyalarini bajarish mumkin:

- karta balansi haqida chek yoki terminal displeyi orqali ma'lumot olish, alohida YoKH va OKH uchun;
- Chek ko'rinishida kartaning ohirgi 20 yoki 30 operatsiyalar haqida sanasi va qiymati ko'rsatilgan holdagi ma'lumotni olish;
- PIN1 va PIN2 ni o'zgartirish;
- Barcha mablag'ni yoki uning qismini YoKH dan OKHga o'tqazish;
- " mablag'ning o'tishi", "avtorizatsiya" operatsiyalarini o'tqazish.

Izoh:

PIN1 yoki PIN2ni o'zgartirishda karta egasi terminal klaviaturasiga yoki chiqariladigan mijoz klaviaturasiga hozirdagi PIN1 yoki PIN2 ni kiritib, yashil tugmani bosishi kerak. Shunda terminal displeyida yoki chiqariladigan mijoz klaviaturasida yangi PIN1 yoki PIN2 kiritish taklifi chiqadi, uni tasdiqlang. Agar barcha harakatlar to'g'ri, hatosiz bajarilgan bo'lsa, displeyda "MUVAFFAQIYA TLI" yozuvi paydo bo'ladi. Bunday yozuv chiqqanidan so'ng, PIN1 yoki PIN2 o'zgarishi muvaffaqiyatli tugallangan hisoblanadi va kartada egasi o'rnatgan yangi PIN1 yoki PIN2 ishlayapti. Agar biron bir sababga ko'ra PIN o'zgarishi muvaffaqiyatsiz tugallangan bo'lsa, kartada eski PIN1 yoki PIN2 ishlayapti.

Agar karta egasi 3 marta noto'g'ri PIN1 yoki PIN2 kiritgan bo'lsa, mazkur PIN blokirovka qilinadi va uni blokirovkadan chiqarish uchun karta egasi o'z oldiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ovolib bankka murojaat qilishi kerak.

“mablag‘ni o‘tkazilishi” operatsiyasini amalga oshirishda karta egasi hisobidagi mablag‘ YoKH ga o‘tadi. Bu operatsiyani bajarish uchun savdo shahobchasi personal terminal telefon kabelini shahar telefon simini oddiy razetka (telefon apparati ulanadigan uskuna) ga ulash lozim va terminaldan foydalanish qo‘llanmasiga ko‘ra, chek bosib berish bilan tugaydigan operatsiyaning bajarilishini ta‘minlash. “Mablag‘ni o‘tkazilishi” operatsiyasi avtorizatsiyalaydigan, ya‘ni uni bajarish paytida naqd pulsiz bank hisob-kitoblari tizimida karta avtorizatsiyasi o‘tkaziladi.

«Avtorizatsiya» operatsiyasini bajarayotganda savdo shahobchasi personal terminal telefon kabelini shahar telefon simini oddiy razetka (telefon apparati ulanadigan uskuna) ga ulash lozim terminaldan foydalanish qo‘llanmasiga ko‘ra, chek bosib berish bilan tugaydigan operatsiyaning bajarilishini ta‘minlash.

Avtorizatsiya – bu avtomatik ravishda bajariladigan naqd pulsiz bank hisob kitoblari tizimidagi ko‘p bosqichli tekshiruv jarayoni Uning muvaffaqiyatli bajarilishi YaUPK «UZKART»da kartaning ishlatilishiga va uning xihmat ko‘rsatilish davri bo‘yicha karta limitlarini avtomatik tiklashga (off-line holatida 20 operatsiyalar va 35 kun – avtorizatsiyasiz) ruxsat beradi. Karta muvaffaqiyatli avtorizatsiyadan o‘tmasa – u texnologik ravishda kelgusida to‘lov tizimi infrastrukturasi ishlatilishiga o‘tqazilmaydi va uning chegaralari tiklanmaydi, bankka qo‘shimcha tekshirish uchun topshirilishi shart.

5. TERMINAL ISHLATISHNING SHART-SHAROITLARI

Savdo terminalini o‘rnatish uchun hech qanday joy tayyorlash tadbirlari kerak emas.

Savdo terminalini va uning chiqariladigan mijoz klaviaturasining ishlatilish shartlari oddiy, ofis va maishiy elektrotexnika anjomlarining ishlatilish shartlari bilan bir hil.

To‘liq funksional statsionar terminallar elektr ta‘minoti 220 volt kuchlanishda va o‘zgaruvchan tok chastotasi 50 gerts birlamchi elektr tizimiga ulanadi.

To‘liq funksional ko‘chiriladigan terminallar elektr ta‘minoti maxsus zaryadlash uchun qo‘shimcha uskunadan zaryadlanuvchi, o‘rnatilgan akkumulyator batareyalari orqali amalga oshiriladi, u o‘z navbatida 220 volt kuchlanishda va o‘zgaruvchan tok chastotasi 50 gerts bo‘lgan birlamchi elektr tizimiga ulanadi.

Miniterminallar ta‘minoti 1,5 volt kuchlanishli miniterminalning ikkita yon qismida joylashgan 2 ta standart batareyalar orqali amalga oshiriladi.

Ishlatish qoidalari o‘z ichiga savdo shahobchasi personal va boshqa shaxslar bajarishi zarur bo‘lgan shartlarni so‘zsiz bajarishlari, aynan:

- terminal riderlaridan uning savdo kartasini yoki mijoz kartasini operatsiya paytida sug‘urib olmaslik. Chek, terminal yoki chiqariladigan mijoz klaviaturasi displeyida habar chiqmagunicha operatsiya yakunini kutish zarur, keyin riderdan kartochkani olsa bo‘ladi;

- operatsiyani bajarishdan avval savdo shahobchasi ishchisi terminalda qog‘oz borligiga ishoq hosil qilishi lozim;

- operatsiyani amalga oshirayotgan paytda terminalni elektr tarmog‘idan o‘chirmang;

- savdo kartasi inkassatsiyasini, “mablag‘ yuklash”, “avtorizatsiya”, “hisob balansini tekshirish” kabi operatsiyalarini amalga oshirayotgan paytda terminalning modem shnurini va telefon simini uzamang;

- miniterminal orqali operatsiyalarni amalga oshirayotganda avtonom ta‘minot elementlari – batareykalarni chiqarmang;

- operatsiya chekini yoki tekshiruv ro‘yxatini chiqarib berayotganda, qog‘ozga tegmang, terminal klaviaturasining kerakli tugmasini bosib, chekni majburan (qo‘lda) tortib olmang ;

- plastik kartalarning tez ishdan chiqishini oldini olib, sizdan plastik karta, mikroprotsesor xususiyatlarini mexanik kuch va boshqa turdagi ta‘sirilarida o‘zgartirmang, buzamang;

- savdo shahobchasida oldin savdo terminali bilan ishlashni va plastik karta mijozlariga qanday hizmat ko‘rsatilishi kerakligini bank vakillaridan o‘rgangan personalning almashtirilishi holatida, savdo va hizmat tashkiloti yangi oldingi ishchi yoki bank vakili tomonidan ishchining o‘qitilishini ta‘minlab berishi lozim, buning uchun u ariza topshirishi kerak (og‘zaki yoki yozma);

- terminal riderlariga uni, terminal savdo kartasini, mijoz kartasi va butun terminalni ishdan chiqarishi mumkin bo‘lgan begona narsalarning va suv tushishini oldini olish lozim.

Terminal bilan va uning chiqariladigan mijoz klaviaturasi bilan, savdo kartasi bilan ishlashga faqat bank vakili tomonidan maxsus o‘qitilgan savdo shahobchasi ishchisi haqlidir.

6. SAVDO TERMINALI BILAN ISHLASHNING UMUMIY QOIDALARI

Operatsiyalar Menyusi

Menyu – bu Savdo terminalida bajariladigan operatsiyalar ro'yxati. Har bir bandi bitta operatsiya yoki ishga teng bo'lgan yozuvni tashkil qiladi. Savdo terminali displeyida bu yozuvlar 2 (1) ta qatorga joylashgan. Qator 1 yoki 2 ta menyu bandini tashkil qiladi.

Ish turlarining asosiy menyusi – bu Savdo terminalini yoqqandan ekranda paydo bo'ladigan birinchi menyu va u albatta "To'lov" bandidan iborat.

U yoki bu menyu bandiga kirish kerakli, shu vazifaga mos keladigan funktsional tugmani bosish bilan amalga oshadi.

Oldingi bosqich menyusiga o'tish qizil, u operatsiyaning taqiqlanishini bildiradigan, tugmani bosganda amalga oshadi.

Ma'lumotni kiritish va operatsiyani bajarish

Ma'lumotni terminalga kiritish (to'lov qiymati, PIN) savdo shahobchasi ishchisi yoki mijoz tomonidan terminal va chiqarilgan mijoz klaviaturasi sonli tugmalari orqali amalga oshiriladi. Noto'g'ri kiritilgan ma'lumotni to'g'rilash uchun sariq tugmani bir yoki bir necha marta bosib, eski ma'lumotni o'chirib, yangisini kiritish mumkin. sariq tugmaning har bir bosilishi terilgan oxirgi qiymatni yoki PINni o'chirilishiga olib keladi. Yana qizil tugmadan ham foydalansa bo'ladi. Bu tugma yordamida kiritilgan yozuvni umuman o'chirsa bo'ladi, undan so'ng yangisini, to'g'risini yana bir bor kiritish yoki operatsiyani qaytadan bajarish lozim. Kerakli ma'lumotni kiritgandan so'ng uni tasdiqlash uchun yashil tugmani bosish kerak.

Karta egasi savdo shahobchasi ishchisi kiritgan ma'lumotni terminal displeyi va chiqarilgan mijoz klaviaturasi displeyi (terminal turiga qarab) orqali ko'rib tanishib chiqishi operatsiyaning bajarilishini kerakli tugmani bosib yo tasdiqlashi yo inkor qilishi lozim.

Operatsiya tugallanganidan so'ng, terminal displeyi va chiqarilgan mijoz klaviaturasi displeyida uning muvaffaqiyatli o'tgani haqida xabar chiqadi yoki operatsiya bo'lib o'tmaganining sababini ko'rsatuchi kod chiqadi.

Agar operatsiyani takror bajarganda ham hato chiqaversa, savdo shahobchasi ishchisi (boshqa mijozlarda ham shu holat bo'lsa) yoki mijoz (agar boshqa terminallarda ham shunday bo'lsa) bankka kartani tekshirib berish va tushuntirishini so'rab murojaat qilishi kerak.

Terminal savdo kartasi inkassatsiyasini o'tqazish

Terminal savdo kartasi Inkassatsiyasi quyidagi usullarda o'tqazilishi mumkin :

- shahar telefon tarmog'iga ulanganligidan foydalanib, to'g'ridan-to'g'ri savdo shahobchasida joylashgan savdo terminali orqali (balki o'rnatilgan modemi bor terminallar uchun);

- Bank idorasida, shaxsiy kompyuter asosida tashkil qilingan maxsus ish joyida. Buning uchun savdo shahobchasining mas'ul vakili savdo kartasini bank idorasiga yetkazishi kerak;

- Ushbu vazifani bank o'zi istaganidek bajarishi uchun o'z-o'ziga hizmat ko'rsatish usuli bilan (bankomatlar , infokiosklar va boshqalar).